


2023- yilning yanvar - mart oylarida Qashqadaryo viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi – 3265,7 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 3142,2 mlrd. so'mni (102,8 %), o'rmon xo'jaligi – 109,4 mlrd. so'mni (102,4 %), baliqchilik xo'jaligi – 14,2 mlrd. so'mni (131,4 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 8,1 % ni tashkil etdi.

**3265,7****Qashqadaryo viloyati bo'yicha****01**
3142,2 **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar****02**
109,4 **O'rmon xo'jaligi****03**
14,2 **Baliqchilik**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2023- yilning yanvar - mart yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 102,8 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 102,4 % i - o'rmon xo'jaligi, 131,4 % i – baliq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.

Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi




2023- yilning yanvar- mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Kitob (280,4 mlrd. so'm) G'uzor (272,8 mlrd. so'm) va Chiroqchi (267,6 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qarshi shahri (68,8 mlrd. so'm), Shahrisabz

shahri (16,0 mlrd. so‘m) va Ko‘kdala tumanini (152,4 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (102,9 %) yuqori o‘shish sur‘atlari Qarshi shahri (117,7%), Nishon (109,0 %), Koson (105,9%), Muborak (104,8%), Kasbi (103,4 %), Qarshi shahri va Mirishkor tumanida (103,1%), kuzatildi. Shahrisabz (100,8 %), Qarshi (100,5 %), Kitob (100,3 %), va Ko‘kdala (100,2 %), tumanlarida esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi.


Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘shish sur‘ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3104,6 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 192,1 mlrd. so'mni (97,6 %), chorvachilik mahsulotlari – 2912,5 mlrd. so'mni (103,1 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 91,4 % i - Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,2 % i - fermer xo'jaliklariga, 2,4 % i - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nishon tumanida (21,6%), Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Shahrisabz shahrida (99,7%), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qarshi shahrida (18,0%) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Shahrisabz shahrida (0,1%), Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Yakkabog' tumanida (75,7%),

qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Qarshi va Kasbi tumanida (0,1 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2023- yilning yanvar- mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 192,1 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 97,6 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 6,2 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi


- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 3,0 ming t. sabzavotlar (2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 12,4 % ga kam) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,4 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, t.




Chorvachilik



2023- yilning yanvar- mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2912,5 mlrd. soʻmni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 93,8 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 44,3 ming t. goʻsht (2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 3,1 % ga koʻp), 145,6 ming t. sut (2,8 % ga koʻp), 92,4 mln.dona tuxum (0,1 % ga koʻp), 62,1 ming dona qora koʻl teri (2,8 % ga koʻp) ishlab chiqarildi va 462,1 t. baliq (26,9 % ga koʻp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**





2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 44,3 ming t. go'sht (2022 yilning yanvar- martiga nisbatan 3,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,3 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha
go'sht (*tirik vaznda*)
yetishtirish hajmi, tonna



Sut



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 145,6 ming t. sut (2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 2,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,7 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha
sut yetishtirish
hajmi, t.




Tuxum


Hajmi, mln.dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 92,4 mln. dona tuxum (2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 0,1 % ga ko'p ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 64,7 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha
olingan tuxum
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi,t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 462,1 tonna (2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 26,9 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 87,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,6 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 7,9 % i fermer xo'jaliklariga, 86,7 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 12,5 % i fermer xo'jaliklariga, 84,1 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 4,1 % i fermer xo'jaliklariga, 77,7 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 18,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 681,0 mingtaga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 36,9 ming boshga (2,2 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



**Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami

yirik shoxli qoramollarning 93,6 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh




2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 547,9 mingtaga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni - 11,1 ming boshga (2,1 %) ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati




**Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 93,3 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh





2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 4 865,5 mingtaga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni - 129,7 mingtaga (2,7 %) ko'paydi.


Qo'y va echkilar

Soni, ming bosh

O'sish sur'ati



Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 86,7 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh




2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 33,8 mingtaga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni – 1083 boshga (3,3 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar, xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 84,1 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh




2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5 683,0 mingtaga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 60,4 ming boshga (1,1 %) kamaydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 77,7 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 75-221-34-46